



UDK:811.512

Sabogul SUYUNOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti o'qituvchisi
E-mail: s.suyunova@gmail.com

ToshDO'TAU professori, f.f.d O.Hamrayeva taqrizi asosida

MUNAVVARQORI ABDURASHIDKHONOV ASARLARIDA TILSHUNOSLIK MASALALARINING YORITILISHI

Аннотация

Maqolada o'zbek jadid adibi, milliy universitet ta'sischi, filolog olim va publisist Munavvarqori Abdurashidxonov asarlarida aks etgan tilshunoslik masalalari yoritilgan. XX asr boshlarida Turkistonda til siyosati, o'zbek tilining o'qitilishi bilan bog'liq nazariy va amaliy muomalar muallifning "Ibtidoiy maktablarda davlat tili", "Inqilobga qadar Turkiston maktablari" maqolalarida aks etgan bo'lib, Munavvarqori Abdurashidxonov jadid ma'rifatparvar adibi sifatida bu masalalarga munosabat bildirgan. "Adibi avval", "Adibi soniy" kabi darsliklari tarkibida berilgan tilshunoslik sohasiga doir fikrlar, mashqlar tahlilga tortilgan. "O'zbekcha til saboqlig'i" jamoaviy o'quv qo'llanmasining adib qalamiga mansub qismi tahlil etilib, unda yoritilgan masalalar Fitratning tilshunoslikka oid asarlari bilan qiyoslangan.

Kalit so'zlar: O'zbek jadid adibi, tilshunoslik masalalari, jadid maktabi, til siyosati.

ОСВЕЩЕНИЕ ЯЗЫКОВЫХ ПРОБЛЕМ В ТВОРЧЕСТВЕ МУНАВВАРКОРИ АБДУРАШИДХАНОВА

Аннотация

В статье рассматриваются языковые проблемы, отраженные в творчестве современного узбекского писателя, основателя национального университета, филолога и публициста Мунавваркори Абдурашидханова. Теоретические и практические вопросы, связанные с языковой политикой и преподаванием узбекского языка в Туркестане в начале XX века, нашли отражение в статьях автора «Государственный язык в начальных школах» и «Школы Туркестана до революции», и Мунавваркори Абдурашидханов, как новый просвещенный писатель, откликнулся на эти вопросы. Проанализированы идеи и упражнения в области языкознания, представленные в таких учебниках, как «Адиби аввал» и «Адиби соний». Проанализирована часть коллективного учебника «Урок узбекского языка», приписываемая писателю, и вопросы, затронутые в нем, сопоставлены с трудами Фитрата по языкознанию.

Ключевые слова: Узбекский писатель-джадид, языковые проблемы, школа джадидов, языковая политика.

COVERAGE OF LINGUISTIC ISSUES IN THE WORKS OF MUNAVVARKORI ABDURASHIDKHONOV

Annotation

The article discusses the issues of linguistics reflected in the works of the modern Uzbek writer, founder of the national university, philologist and publicist Munavvarqori Abdurashidkhanov. Theoretical and practical issues related to language policy and the teaching of the Uzbek language in Turkestan at the beginning of the 20th century were reflected in the author's articles "State language in elementary schools", "Schools of Turkestan before the revolution", and Munavvarqori Abdurashidkhanov, as a modern enlightened writer, reacted to these issues. The ideas and exercises in the field of linguistics given in his textbooks such as "Adibi avval", "Adibi soniy" are analyzed. The part of the collective textbook "Uzbek language lesson" written by the writer is analyzed, and the issues covered in it are compared with Fitrat's works on linguistics.

Key words: Uzbek Jadid writer, linguistic issues, Jadid school, language policy.

Kirish. Munavvarqori Abdurashidxonov (1878-1931) taniqli adib va publisist bo'lishi bilan birga bir qator maqolalarini tilshunoslik ilmi va uni o'qitish masallariga bag'ishlagan. Munavvarqori Abdurashidxonov jadid adabiyotida she'riy va nasriy asarlari, ma'rifatchilik ruhida publisistikasi, yangi tizim maktablari uchun "Adibi avval" "Adibi soniy" darsliklarining muallifi sifatida chuqur iz qoldirgan. Adibning adabiyotshunoslik merosi talqinida uning tilshunoslikka doir maqola va tadqiqotlari, darslik va qo'llanmalari tarkibidagi o'zbek tili taraqqiyotiga xizmat qiladigan qarashlari ham muhim ahamiyatga ega. M.Abdurashidxonovning tilshunoslikka doir ilmiy tadqiqotlari bilan birga milliy tilning taraqqiyoti, uni chet tillarning tazyiqidan tozalash va zamonaviy o'zbek dramatikasining shakillanishida muhim ahamiyat kasb etgan bir qator asarlari mavjud. Bular sirasiga "Ibtidoiy maktablarda davlat tili", "Inqilobga qadar Turkiston maktablari" kabi maqolalar kiradi. Bulardan tashqari to'rt jildan iborat "O'zbekcha til

saboqlig'i" jamoaviy tadqiqotidagi ishtiroki uning yetuk tilshunos bo'lganligini ko'rsatadi

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbek tilshunosligining taraqqiyotida Abdurauf Fitrat, Qayum Ramazon, Shokirjon Rahimiy, Ashurali Zohiriy, Shorasul Zunun kabi olimlar qatorida M.Abdurashidxonovning tilshunoslik faoliyati alohida o'rin tutadi. O'zbek jadid olimlarining tilshunoslikka doir qarashlari XX asrning 90-yillaridan izchil o'rganishga kirishilgan. Bu jihatdan A.Nurmonovning "O'zbek tilshunoslik tarixi" [Nurmonov A., 2002], M.Qurbonovning "Fitratning tilshunoslik me'rosi" [Qurbonova M., 1993], T.Tog'ayevning "Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi" [Tog'ayev T., 2005], M.Tojiyeva "XX asr boshlarida til va Alifbo masalalari" [Tojiyeva M., 2025] haqidagi tadqiqotlari ma'lum. Biroq M.Abdurashidxonovning tilshunoslikka oid tadqiqot va maqolalari haqida shu kunga qadar ilmiy adabiyotlar yetarli emas. Shunga qaramay Sirojiddin Axmatning qator tadqiqotlari va maqolalari tarkibida olimning tilshunoslik

merosiga doir ayrim masalalar aks etgan S.Axmatning "Ikki imperiya asoratida" (1-2 jild), tadqiqotida Munavvarqorining tilshunoslikka oid asarlari haqida ham fikr yuritilgan. Ushbu olim M.Abdurashidxonovning ilmiy-pedagogik asarlarini jamlab "Men Sendamen..." sarlovhasi bilan kitob elon qilgan. Ushbu kitobning "Millatpanoh" sarlovhali so'z boshida Munavvar qorining tilshunoslikka oid asarlariga umumiy tavsif beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqola mavzusini yoritishda qiyosiy-tarixiy, tafsirlash metodlaridan va adabiy asarlar tahlili usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Adibning "Ibtidoiy maktablarda davlat tili" maqolasida XX asr boshlarida rus-tuzem maktablari uchun asosiy o'qitish tili rus tili bo'lgani kabi o'zbek tili maktablarida ham barcha fanlar o'zbek tilida bo'lishligini takidlagan: "Ma'lumki, hozirda Turkiston jumhuriyatida rasmiy davlat tili ikki xil (turkcha va ruscha)dir. Turkistonda ochilgan xalq maktablarining har birida bu ikki tilning o'qitilmog'i lozimdur. Eski hukumat zamonida xazina tarafidan ochilgan ruskiy-tuzemniy maktablarida birinchi yildan boshlab ruscha tili o'qitmoq hamda butun fanlarni rus lisoni ila ta'lim bermog' majburiy edi. Chunki ul maktablar haqiqatdan turk bolalariga ta'lim bermog' uchun emas, balki turklarni ruslashtirmog' maqsadi ila ochilgan edi" [Abdurashidxonov M., 2019: 245]. M.Abdurashidxonovning qayt etishiga ko'ra, rus-tuzem maktablari uchun joriy qilingan rus tilini asosiy til sifatida o'qitishni yangi maktablarga tatbiq qilish ham noto'g'ri ekanligini tushuntirib beradi. Buni shu maqoladagi quyidagi jumlar orqali bilishimiz ham mumkin: "Inqilobdan so'ng bu maqsadlar tamom tashlanib, har millatga o'zi tilagancha yashamoqqa keng yo'l ochildi. Shuning ila barobar rusko-tuzemniy maktablar bus-butun yopilub, o'rniqa milliy maktablar ochila boshlandi. Milliy maktablarda esa o'quvlar butun ona tilida bo'lib, davlat tillaridan biri (rus) maktablarida turkcha, turk maktablarida (ruscha) bir fan bo'lib kiritilgan.

O'tgan butun Turkiston o'qituvchilari qurultoyi hamda musulmon o'qituvchilari qurultoyi bu masalani yaxshi taftish qiling'ondan so'ngra ibtidoiy maktablarga davlat tillaridan biri turk maktablarina ruscha, rus maktablarina turkcha faqat 4 – yildagina kiritilur, degan bir qarorg'a keldi. Bu qaror Turkiston "Maorif kollegiyasi" tarafidan ham chiqarildi hamda butun maktablarda shul asosga binoan o'quvlar boshlanib muallimlar tayin etildi" [Abdurashidxonov M., 2019: 245]. Turkiston maorif kollegiyasida bu masala qaytadan ko'rib chiqilgan bo'lishiga qaramasdan turk (o'zbek) maktablari uchun rus tilini majburiy joriy qilinishiga qarshi chiqdi. Unga ko'ra rus maktablarida turkcha, turk maktablarida ruscha ikkinchi sinfdan haftada uch soat o'tiladi degan qaror chiqqan. O'sha paytda Turk sho'bası mudiri bo'lib ishlayotgan Munavvarqori Abdurashidxonov boshchiligidagi hayotning boshqa a'zolari qurultoy chaqirib, bu masala yuzasidan o'z fikrlarini bir joyga qo'yishadi. Unga ko'ra Turkistonda Maorif komissariati tomonidan belgilanishi bo'yicha rus tili to'rtinchi yildan o'qitilish lozim ekanligi takidlangan. Maqolada Munavvar qorining turkistonlik yoshlarni o'z ona tillarini mukammal bilishlari va o'z haq-huquqlarini o'rganishlari yo'lida qilgan sa'y-harakatlar e'tiborga molik. Munavvar qori Rus hukumati qabul qilgan qaroriga qarshi chiqish bilan birga o'z xalqining milliy tilini saqlab qolishga jiddiy harakat qildi. Bu haqda Munavvarqori asarlarini nashrga tayyorlagan Sirojiddin Ahmad shunday yozadi: "Munavvar qori bunday ko'rsatmalarga e'tibor bermay, usuli jadid maktablari uchun suv va havodek zarur bo'lgan darslik va dastur ishlashga kirishdi. 1907-yilga kelib "Adibi avval" darsligini yaratdi. O'zbek tilining deyarli ilk alifbolaridan bo'lgan bu kitob Saidrasul Aziziyning darsligi bilan oldinma keyin bosilib chiqdi. U tez orada Turkistondagi

barcha maktab o'qituvchilari tomonidan yaxshi kutib olindi va amaliyotga tatbiq qilindi. Arxiv hujatlariga qaraganda, Munavvarqorining bu kitobi S.Aziziyning "Ustodi avval" kitobi bilan barobar rus-tuzem maktablarida ham o'qitilgan" [Sirojiddin Ahmad., 2019: 145].

Ko'rinadiki, XX asr boshlarida Milliy maktablarni ochish ularni dastur va darsliklar bilan taminlash uchun mustamlakachilik siyosatini olib borgan amaldorlar milliy maorif ishlarini rivojlantirishga jiddiy to'sqinlik qilganlar. Chunki milliy agar savodli bo'lib o'z haq huquqlarini yaxshi tanisa mustamlakachilarga bo'y sunmasdan mustaqillik sari intilishlari mumkun. Shuning uchun ham ularni jaholatda saqlash mavjud colonial tuzumning asosiy maqsadi bo'lgan. Shunga qaramay Munavvarqori singari jadid ziyolilari imkon qadar millatni savodli qilish uchun harakat qilganlar. Bunday harakatlarni Abdurauf Fitratning faoliyatida Shokirjon Rahimi, Qayum Ramazan, Ashurali Zohiriy, Shorasul Zunnun, Cho'lpon, Elbek kabi olim va adiblarning faoliyatida ham kuzatish mumkun.

Til bilan bog'liq muommolarni hal qilish uchun bir necha marta yig'ilish va qurultoylar o'tkizildi. Munavvarqorining maqolalarida ushbu masalalar ham o'z aksini topgan. Shuningdek, "Inqilobga qadar Turkiston maktablari" maqolasida shunday yoziladi: "1903-yilda bir "Alifbo" tuzib o'quvchilarga o'rgata boshladim. Ba'zi tajribalardan keyin uni nashr etishga muvaffaq bo'ldim. Nomini "Adibi avval" qo'ydim. Turkistonda tovushli harf usuli bilan bosilgan ilk o'qish kitobi shul "Adibi avval" kitobidir" [Abdurashidxonov M., 2019: 479].

Munavvarqori ibtidoiy maktablarning 2-sinfi uchun yozgan "Adibi soniy" kitobida ham tilshunoslik masalalariga murojaat etar ekan, til ilmining boshlanishi o'qish va yozishdan iborat ekanligini tagidlaydi: "O'qimoq, yozmoq ilmi qiyin bir ish emasdur. Barki, oz vaqt maktabda g'ayrat qilmoq ila o'rganilarg'on bir hunardur" [Abdurashidxonov M., 2019: 119]. Munavvarqorining takidlashicha, o'qimoq va yozmoq har bir kishi uchun eng zarur hizmatdur. Agar kishi o'qish va yozishnin bilmasa boshqa savodli kishiga muhtoj bo'ladi va hayotda o'z o'rnini topa olmaydi. Shunday ekan mualifni yozishicha: "Barki, o'qimoq, yozmoq ilmini biladurg'on bir kishig'a muhtoj bo'lurlar. Bundan muallim bilurki, o'qimoq, yozmoq ilmini bilmagan odamlardan tilsiz, quloqsiz kishilar yaxshidur" [Abdurashidxonov M., 2019: 119].

Munavvarqori harb ikki darsligi orqali savod chiqarish zaruriyatini takidlash bilan birga bir qator kichik hikoya yoking matnlar berib o'quvchilarga maktab nima ekanligini, undagi ta'lim tizimi qanday asoslarga ega bo'lishi kerakligini tushuntirgan. Agar "Adibi avval" kitobida umumiy saboq va o'gitlar berilgan bo'lsa, "Adibi soniy" darsligida esa mahsus mashqlar orqali o'quvchilarning savodli bo'lishi, til ilmlarini egallashi arurligini ham uqtirgan.

Ma'lumki, Munavvarqori yashagan davrda Turkiston Rassiyanı mustamlakasi bo'lib, Rus amaldorlari til siyosati orqali mahalliy axolini o'z ona tilidan yiroqlashtirib, rus tilini singdirish orqali ruslashtirish siyosatini olib borgan edilar. Munavvarqorining publisistik maqolalarida bu masalaga jiddiy munosabat bildirilgan bo'lsa, uning darslik va qo'llanmalarida millatni savodli bo'lishi, til bilimlarini puhta egallash uchun amaliy zamin hozirlangan. M.Abdurashidxonovning "O'zbekcha til saboqlig'i" asari 4 qismdan iborat bo'lib, uning to'rtinchi qismida o'zbek tili morfologiyasiga oid qarashlar bayon qilingan. M.Abdurashidxonov fikricha, bular orasida morfologiya til ilmining asosiy mohiyatini anglatadi. Gaplarni tashkil etuvchi so'zlar 4 qismga ajraladi: 1- o'zboshli so'zlar, 2-ko'makchi so'zlar, 3-undov so'zlar, 4-belgilar. Olimning fikricha o'zboshli so'zlar boshqa manbalarda mustaqil so'zlar deb olingan. Ko'makchi va undov so'zlar esa yordamchi

so'zlar sifatida izohlangan. Belgilar nomi ostida Munavvarqori alohida olingan so'zlarni ko'rsatadi. Bular Fitrat va boshqa tilshunoslarning asarlarida bog'lovchi, ko'makchi, yuklama deb ko'rsatilgan. M.Abdurashidxonov bularning har biriga zarur misollar keltiradi. Munavvarqori jadid maktablari uchun chiqargan "O'zbekcha til saboqlig'i" asarining "Sarf" (Morfologiya) bo'limida gap va uning bo'laklari haqida to'xtalib o'tgan. Gapni tashkil qilgan so'zlarning har biri gapning bir bo'lagi sanalishini va shunga ko'ra gap ikki bo'lakdan tuzilganligini o'zining shu asarida yozgan. Gap bo'laklari quyidagi ikki qismga ajratilgan:

1. Bosh bo'lak.

2. To'ldirg'ich bo'laklar (ikkinchi darajali bo'lak).

Bosh bo'laklar ega va kesimni o'z tarkibiga olgan bo'lsa, ikkinchi darajali bo'laklarning o'zini yana ikki turga bo'lgan: Chin to'ldirg'ichlar va o'gay to'ldirg'ichlar kabi [Abdurashidxonov M., 2019: 245].

Ma'lumki, hozirgi tilshunoslikda gap bo'laklari bosh va ikkinchi darajali bo'laklar sifatida o'rganiladi. Munavvarqori qori qo'llagan "to'ldirg'ich" so'zi "ikkinchi darajali"ga nisbatan bosh bo'lakni to'ldiruvchilik xarakterga ega. Ikkinchi darajali birikma esa bosh bo'lakka nisbatan to'ldiruvchi mohiyatini anglatadi. Biroq 30-yillardan keyin rus tilshunosligi ta'sirida "to'ldirg'ich" bo'laklar "ikkinchi darajali" bo'laklarga aylandi. "O'zbekcha til saboqlig'i"ning qolgan qismlari: fonetika, so'z va gaplarning yasash, sintaksis (nahv) qismlaridan iborat. Bu kitob mualliflar jamosi tomonidan yozilgan uchun qo'llanmaning qaysi qismi Munavvarqori tomonidan yozilganligi aniq ko'rsatilmagan. Kitobning 1925-yilgi birinchi nashriga Shokirjon Rahimiy, 1926-yilgi ikkinchi nashriga esa Munavvarqori ma'sul muharrir bo'lgani ko'rsatilgan. Bundan shuni anglash mumkinki, Munavvarqori mazkur kitobning mualliflaridan biri sifatidagina emas balki asarni umumiy tahrir qilganini ham aniqlash mumkin.

"O'zbekcha til sabog'lig'i" asarining 1926-yilgi nashir so'z boshida shunday yozilgan: "Asar O'zbekiston ilmiy markazining tastig'idan o'tgan. O'zbekiston o'zbeklari orasida yangi usul maktablari ochilib, ona tili darslari o'qula boshlag'aniga 24-yil to'lib, 25-yilga qadam qo'yildi. Bu muddat ichida ona tili to'g'risida yozilg'on va bosilg'an kitoblarning barchasi yolg'iz bir-biridan ko'chirilgan alifbo va o'qish kitoblaridagina iborat bo'lib keldi. Til qoidalari to'g'risida bu kungacha kitob bosilmag'anlig'i uchun muallimlarimiz shogirtlariga til qoidalari usmonliha va tatarcha kitoblardan olib buzib, tuzib turli yo'l va turli usul bilan o'qitmoqqa majbur bo'ldilar" [O'zbekcha til sabog'lig'i, 1926: 3]. Ko'rinadiki, o'zbek tili qoidalari tog'risida bu vaqtga qadar arziqli manbalar yo'q edi. Shuning uchun ham ushbu nazariy qo'llanma ikki yil davomida o'quvchilarga o'zbek tili bo'yicha darslik va mashqlar to'plami vazifasini bajargan. Kirish so'zida qayd etilishicha: "Kitobning tartibiga kelganda shuni aytamiz: qoidani imlo, sarf va nahv qismlariga ayirishdan ko'ra aralash usulda sinflarga bo'lish bizcha munosib ko'rildi. Shu sababdan biz kitobimizni to'rt bo'limga bo'lib, har bir bo'limni bir sinfga tahsis etdik, har bo'limini o'zidan avvalgi bo'limning tamamllovchisi va kengaytiruvchisi

etib olib bordiq. Ushbu birinchi bo'lim ikkinchi sinfga maxsus bo'lg'anlig'i uchun nazariy qoida va ta'riflarga hech bir kirishmasdan yolg'iz gap-so'z, harf va bunlarning turlari yozilish yo'llari bilan shogirtlarning amaliy suratda tanishdirish chorallari ko'rildi. Atama (istiloh) masalasiga kelganda el anglarliq so'z topolsak, mumkun qadar o'zimizdan qo'ydiq, o'zimizdan topolmaganlarni boshqa turk ellaridan, ularda ham topilmag'onlarini to'g'ridan-to'g'ri arabchadan olmoqqa majbur bo'ldik" [O'zbekcha til sabog'lig'i, 1926: 3]. Anglatilishicha, o'zbek tili gramatikasi bu davrda yetarli ishlanmagani uchun boshqa turkiy xalqlardagi so'z va atamalardan foydalanilgan. Hatto ko'p o'rinda ushbu asarga arab tili qoidalari ham tadbiiq etilganini kuzatish mumkun. Arab tilida gap (jumlar) ikki, uch, to'rt, besh va undan ortiq so'zlar ishtirok etgan gaplar tasnif qilingan. Bu darslikda ham huddi shunday: ikki so'zli gaplar... to'rt va undan ortiq gaplar tarzida misollari bilan berilgan. So'zlarning tarkibi esa xuddi shu qoidaga asosan bir harfli so'zlar... olti harfli so'zlar tarzida belgilangan. Bu bilan cheklanilmasdan "so'z bo'g'imlari" qismida "bir bo'g'inli so'zlar... besh bo'g'imli so'zlar" tarzida tushuntirilgan. Bu usul turkiy tillar gramatikasi qoidalariga to'g'ri kelmasa ham ibtidoiy maktablar uchun esda saqlash mumkun bo'lgan qulay usul hisoblanadi.

Munavvarqorining tilshunoslik faoliyati va uning natijalari bu darslikni zamonasidagi boshqa olimlar tomonidan yozilgan o'zbek tiliga oid asarlar bilan qiyoslaganda uning tilshunos olim sifatidagi iqdidi qo'llanma yaqinroq ko'zga tashlanadi.

Fitratning tilshunoslikka oid qarashlari "Sarf" ("Morfologiya") va "Nahv" ("Sintaksis") kabi darsliklari orqali namoyon bo'lgan. Morfologiya so'z turkumlarini o'rganuvchi qism bo'lgani uchun. Asarda "so'z" atamasi haqida shunday ta'rif berilgan: "So'z bir ma'noni bildirgan, o'ziga maxsus ohangi va bosimi bo'lg'an tovushlar to'dasidir" [Fitrat A., 1925]. Fitrat morfologiyaning "so'z tashkullari" qismini bayon etishdan avval so'z yasash haqida to'xtaladi. U so'z yasashini kengroq ma'noda talqin qiladi. Bir o'zakka qo'shimcha qo'shib yasalgan barcha so'zlarni "yasama" deb qaraydi. Faqat o'zakdangina iborat bo'lgan so'zlarni tub so'zlar deb ataydi. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo'lsak, Fitrat so'zlarni tub va yasama deb ikki qismga ajratgan. Shuningdek "Sarf" asarining keying bo'limlarida: ot, sifat, fe'l, olmosh, ko'makchi kabi gramatik kategoriyalarni belgilaydi.

Xulosa va takliflar. A.Fitratning "Nahv" kitobida esa gap bo'laklari, gaplarning turlari, hususida fikr yuritgan. Munavvarqori va Fitratning til sohasidagi darslik va qo'llanmalarini kuzatish orqali har ikki adib masalaga jadid dunyo qarashi bilan munosabatda bo'lib, jamiyatning taraqqiy topishida milliy til va adabiyotning muhim o'rin tutishi takidlangan. Bu jarayonda jadid marifatchilari savod chiqarishga bag'ishlangan ibtidoiy asrlar yozishdan ish boshlab tilshunoslik sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratishgacha bo'lgan jarayonni bosib o'tdi. Ushbu ta'limiy jarayonda Munavvarqori va Fitratning asarlari boshqa adiblarga namuna bo'la oldi.

ADABIYOTLAR

1. Abdurashidxonov M. Men sendamen... – T.: INFO CAPITAL GROUP, 2019.
2. Abdurashidxonov M. Xotiralarimdan / Jadidchilik tarixidan lavhalar. Nashirga tayyorlovchi va izohlar muallifi S. Xolboyev. – T.: Sharq NMAK, 2001.
3. Fitrat A. O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Nahv. – Toshkent, 1926.
4. Fitrat A. O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba. Sarf. – Toshkent, 1925.
5. Munavvarqori Abdurashidxonov. Adibi avval. – T, 1909.
6. Munavvarqori Abdurashidxonov. Adibi soniy. – T, 1910.
7. Nurmonov A. O'zbek tilshunosligi tarixi. – Toshkent 2002
8. Tog'ayev T. Ashurali Zohiriy va uning tilshunoslik merosi. – Toshkent, 2005.
9. Tojiyeva M. XX asr boshlarida til va alifbo masalalari. – Toshkent, 2025.
10. Qurbonova M. Abdurauf Fitrat va o'zbek tilshunosligi. – Toshkent, 1997.